

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA QO'SHIMCHA DAVLAT GRANTI ASOSIDAGI
QABUL KO'RSATKICHLARI DOIRASIDA XOTIN-QIZLARGA TANLOVDA ISHTIROK
ETISH UCHUN TAVSIYANOMA BERISH VA ULARNI O'QISHGA QABUL QILISHNI
TASHKIL ETISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2020-yil 2-martdagি PF-5953-son **Farmoniga** muvofiq, shuningdek, xotin-qizlarning oliv ta'lrim muassasalarida tahsil olishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasini qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Oliy ta'lrim muassasalariga xotin-qizlarni qo'shimcha davlat granti asosida qabul qilish ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

oliy ta'lrim muassasalariga xotin-qizlarni qo'shimcha davlat granti asosida qabul qilish ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish;

oliy ma'lumot olish istagida bo'lgan iqtidorli xotin-qizlarning tanlovda ishtirok etishi uchun tavsiyanoma olishga qo'yilayotgan mezonlarni belgilash;

qo'shimcha davlat granti asosida tanlovda ishtirok etish mumkin bo'lgan ta'lrim yo'nalishlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish tartibi;

respublika oliv ta'lrim muassasalariga ajratilgan qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma oluvchi talabgorlarni tanlash bo'yicha ishchi guruh faoliyatini tashkil etish va ijtimoiy mezonlar bo'yicha ko'rib chiqish.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2017-y., 6-son, 108-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta'lrim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi **nizomga** quyidagi mazmundagi 10^9 -band qo'shilsin:

"10⁹. Respublika oliv ta'lrim muassasalariga umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun qo'shimcha davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlari ajratiladi.

Davlat granti asosidagi qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari bo'yicha talabalikka O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining belgilangan shakldagi tavsiyanomalariga ega bo'lgan abituriyentlar test sinovlari natijalariga muvofiq qabul qilinadi".

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zлari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjalarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinnbosari B.A. Musayev, O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri R.T. Mamatov va oliv va o'rta maxsus ta'lrim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 23-iyun,
402-son

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 402-son qaroriga
ILOVA**

Oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Respublika oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida oliy ma’lumot olish istagida bo‘lgan iqtidorli xotin-qizlarning tanlovda ishtirok etishi uchun tavsiyanoma quyidagi mezonlardan biri asosida beriladi:

kam ta’minlangan oiladan chiqqan xotin-qizlar;

to‘liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya’ni ota yoki onasi vafot etgan xotin-qizlar;

14 yoshgacha bo‘lgan ikki va undan ortiq farzandlarni tarbiyalayotgan, boshqa qarindoshlaridan alohida yashayotgan yolg‘iz ayol (erkak)larning qizlari;

shaxsiy uy-joyga ega bo‘lmagan, ijara da yashayotgan oilalar;

ota-onalardan biri yoki har ikkisi ishsiz bo‘lgan va ish qidiruvchi shaxs sifatida aholi bandligiga ko‘maklashish markazlarida hisobda turganlar;

nogironligi bo‘lgan farzandi bor oilalardan chiqqan xotin-qizlar;

oliy ma’lumotli xotin-qizlar bilan qamrab olish darajasi respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ikki yoki undan ortiq marotaba past bo‘lgan tumanlar, shuningdek, olis va borish qiyin hududlarda yashovchi oilalardagi qiz farzandlar (ularni o‘z hududida 3 yil ishslash sharti bilan).

3. Xotin-qizlarning respublika oliy ta’lim muassasalariga ajratilgan qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma mazkur Nizomga **1-ilovadagi** shaklga muvofiq beriladi.

4. Tavsiyanoma blankalari “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasida tayyorlangan qat’iy hisobda turuvchi hujjat hisoblanadi, hisob seriyasi, raqami va himoyalanganlik darajasiga ega bo‘ladi.

5. Tavsiyanoma mazkur Nizomga **2-ilovadagi** sxema bo‘yicha oliy ma’lumot olish istagida bo‘lgan xotin-qizlarga uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga beriladi.

6. Tavsiyanoma ajratilgan qo’shimcha to‘rt foizli davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida abituriyent sifatida ro‘yxatdan o‘tishida tanlagan birinchi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqini beradi, ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim olish uchun tanlovda ishtirok etishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

7. Respublika oliy ta’lim muassasalariga kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumiyl belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun qo’shimcha to‘rt foizli davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari (keyingi o‘rinlarda — qo’shimcha qabul ko‘rsatkichlari) har yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risidagi tegishli qarori qabul qilinganidan so‘ng ikki hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda — Davlat komissiyasi) tomonidan respublika hududlari kesimida tasdiqlanadi.

8. Qo’shimcha qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etuvchilar toifasiga umumiyl o‘rta ta’lim (11-sinf negizida) yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini tugatganligi haqidagi hujjatga va O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan ushbu Nizomga muvofiq berilgan tavsiyanomaga ega xotin-qizlar (keyingi o‘rinlarda — tavsiyanomaga ega bo‘lgan xotin-qizlar) kiradi.

2-bob. Ishchi guruh faoliyatini tashkil etish

9. Tavsiyanoma berish masalasini ko‘rib chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligi,

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi rahbarlarining tegishli masalalar bo‘yicha o‘rinbosaridan iborat tarkibda har yili fevral oyida Xotin-qizlarga tavsiyanoma berish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) tuziladi.

10. Ishchi guruh a’zolari jamoatchilik asosida ishlaydi.

11. Ishchi guruh uning vakolatlariga tegishli masalalarni Ishchi guruh rahbari boshchiligidagi o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda ko‘rib chiqadi.

12. Ishchi guruh rahbari:

ishchi guruhning umumiy faoliyatiga rahbarlik qiladi va faoliyati ustidan doimiy nazoratini ta’minlaydi;

ishchi guruhning yig‘ilishlarini chaqiradi va ularda rahbarlik qiladi;

ishchi guruh vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalarni uning yig‘ilishida ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

ishchi guruh bayonlarini tasdiqlaydi.

13. Ishchi guruhning barcha yig‘ilishlari bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi.

14. Ishchi guruh ishining tashkiliy shakli yig‘ilish hisoblanadi. Ishchi guruh yig‘ilishlari ishchi guruh a’zolari ro‘yxatdagi tarkibining kamida uchdan ikki qismi qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

3-bob. Tavsiyanomani berish tartibi

15. Tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limlari ajratilgan qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirop etish uchun tavsiyanoma olish maqsadida murojaat etgan xotin-qizlarning hujjatlarini mazkur Nizomning **2-bandи** asosida har yili 10-mayga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalariga taqdim etadi.

Qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirop etishga tavsiyanoma olish maqsadida murojaat etish uchun ariza shakli O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

16. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmalari qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari uchun tanlovda ishtirop etishga tavsiya etilgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi hujjatlarni har yili 20-mayga qadar Ishchi guruhga taqdim etadi.

17. Ishchi guruh qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari uchun tanlovda ishtirop etishga tavsiya etilgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi hujjatlarni mazkur Nizomning **2-bandida** nazarda tutilgan mezonlarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi.

18. Ishchi guruh tomonidan qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari uchun tanlovda ishtirop etishga tavsiya etiladigan nomzodlardan quyidagi hujjatlar talab etiladi:

mazkur Nizomning **2-bandida** ko‘rsatilgan mezonlardan birini tasdiqlovchi hujjatlar (ilovasi bilan);

ma’lumotnama-obyektivka;

umumiy o‘rtalim yoki o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasidan ma’lumotnomasi; pasport yoki tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma nusxalarini.

Mazkur bandda nazarda tutilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish taqiqilanadi.

19. Ishchi guruh taqdim etilgan hujjatlarni har yili 5-iyunga qadar ko‘rib chiqadi.

Ishchi guruh yig‘ilishining yakunlari bo‘yicha bayonnomaga tuziladi, ishchi guruh rahbari va a’zolari tomonidan imzolanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining muhri bilan tasdiqlanadi.

20. Ishchi guruh tomonidan saralab olinib, qo‘shimcha qabul ko‘rsatkichlari uchun tanlovda ishtirop etishga tavsiya etilgan xotin-qizlarning ro‘yxati har yili 15-iyunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga taqdim etiladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

21. Ishchi guruh qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari uchun tanlovda ishtirok etadigan xotin-qizlarga tavsiyanomani har yili 10-iyunga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalariga yetkazib beradi, o'z navbatida, hududiy boshqarmalar har yili 15-iyunga qadar tavsiyanomaning talabgorlarga yetkazilishini ta'minlaydi.

4-bob. Oliy ta'lif muassasasining qabul komissiyasiga talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini topshirish tartibi

22. Tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar oliy ta'lif muassasasining qabul komissiyasiga taqdim etishi lozim bo'lgan hujjatlarga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladigan tavsiyanomani taqdim etishi talab etiladi.

23. Tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar to'g'risidagi ma'lumotlar har yili 15-iyulga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining (keyingi o'rnlarda — Davlat test markazi) abituriyentlar bazasiga kiritiladi.

24. O'rganish natijalariga ko'ra, tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar toifasiga kirishi tasdiqlanmagan shaxslar qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari doirasida o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan kirish imtihonlariga (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) qo'yilmaydi.

25. Tavsiyanomaga ega bo'lgan abituriyentlarni qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari doirasida o'qishga qabul qilish kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga muvofiq qabul qilinadi.

26. Tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar uchun kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) oliy ta'lif muassasalarining bakalavriatiga qabul qilish bo'yicha belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Kirish imtihonlarida to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ballning 30 foizidan kam bo'lmagan ball to'plagan tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar ballar ketma-ketligiga qat'iy riosa etilgan holda, qo'shimcha to'rt foizli davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida talabalikka tavsya etiladi.

27. Qo'shimcha qabul ko'rsatkichlari doirasida talabalikka qabul qilinmagan tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlar to'plagan ballari bilan abituriyent sifatida ro'yxatdan o'tish davrida tanlagan ta'lif yo'nalişlarida umumiy tartibda tanlovda ishtirok etadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

28. Ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Oliy ta'lif muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida [nizomga](#)
1-ILOVA

Oliy ta'lif muassasalariga xotin-qizlarni qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etishi uchun

TAVSIYANOMA

<p>ТАВСИЯНОМА № АА 000000</p> <p>Ушбу тавсиянома фукаро га (Ф.И.О.) (паспорт сериги ва роҳами) Ўзбекистон Республикаси маҳалла ва оиласи кўллаб- куватлаш вазирининг 20 йил «__» даги «__»-сон бўйргита асосан берилди.</p> <p>M.Ў. (мансабдор шахснинг Ф.И.О., имзо)</p> <p>20__ йил «__»</p>	<p>ТАВСИЯНОМА № АА 000000</p> <p>Ушбу тавсиянома фукаро га (Ф.И.О.) (паспорт сериги ва роҳами) Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 20__ йил «__» даги «__»-сон карорига мувофик республика олий таълим муассасаларига умумий белгиланган давлат гранти асосидаги кабул кўрсаткичларига нисбатан хотин-кизлар учун ажратилган кўшимча давлат гранти асосидаги кабул кўрсаткичлари доирасизда ташловда иштирок этиш учун берилди.</p> <p>Тавсиянома ўзбекистон Республикаси маҳалла ва оиласи кўллаб-куватлаш вазирининг 20__ йил «__» даги «__»-сон бўйргита асосан берилди.</p> <p>Тавсиянома расмийлаштириб берилган санадан эътиборан уч йил муддат давомида кучга эга бўлади.</p> <p>Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оиласи кўллаб-куватлаш вазирлиги</p> <p>M.Ў. (мансабдор шахснинг Ф.И.О., имзо)</p> <p>20__ йил «__»</p>
--	---

Oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko’rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi
to‘g‘risida **nizomga**
2-ILOVA

**Oliy ta’lim muassasalariga qo’shimcha davlat granti asosidagi qabul ko’rsatkichlari doirasida
xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul
qilishni tashkil etish tartibi**

SXEMASI



(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020-y., 09/20/402/0800-son)